SEBOREYALI PO‘RSILDOQNING TIZIMLI MUOLAJASI

Pakirdinov A. B.[1], Toshpo‘latov B. X.[2]
[1,2]Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon shaxri.
Dermatovenerologiya kafedrasi

DOI: 10.67620/dermajournal.1730107

Tadqiqot maqsadi. Seboreyali po‘rsildoq (seboreyali dermatit) — Bu haqiqiy chin po‘rsildoq, seboreyali dermatit va tizimli qizil yugurukning eritematoz variantini birlashtirgan po‘rsildoqning klinik shakli bo‘lib, u ko‘pincha bosh terisi, yuz, ko‘krak qafasi va orqa sohalarida uchraydi. Kasallikning rivojlanishida Malassezia turkumiga mansub zamburug‘lar, gormonal disbalans, immun tizim zaiflashuvi hamda stress omillari muhim rol o‘ynaydi. Mazkur ishning maqsadi seboreyali po‘rsildoqni tizimli davolash usullarining samaradorligini baholash, muolajaning asoratlarini o‘rganish hamda oldini olish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Material va usullar. Tadqiqotda 40–70 yosh oralig‘idagi 20 nafar bemor ishtirok etdi. Bemorlar klinik belgilariga ko‘ra yengil, o‘rta va og‘ir shakllarga ajratildi. Diagnostika klinik ko‘rik, dermatoskopiya hamda zarur hollarda mikologik tekshiruv asosida amalga oshirildi.

Bemorlar ikki guruhga bo‘lindi:

1-guruh (10 nafar bemor) — an’anaviy mahalliy davolash (antiseptik vositalar, antifungal shampunlar, kortikosteroidli malhamlar, keratolitik vositalar).

2-guruh (10 nafar bemor) — tizimli kompleks terapiya (tashqi muolaja uchun pantenol aero ko‘pigi va kortikosteroid+yumshatuvchi oziqlantiruvchi malhamlar, ichish uchun kortikosteroid — prednizalon sxema asosida, vitamin-mineral kompleksi, immunomodulyatorlar, probiotiklar hamda zaruratga ko‘ra sedativ vositalar) bilan birgalikda mahalliy davolash.

Davolash muddati 4–8 hafta davom etdi. Klinik samaradorlik yangi patologik toshma paydo bo‘lishi, eritema, qaloqlanish darajasi hamda bemorlarning subyektiv shikoyatlari asosida baholandi. Kuzatuv davri 3 oy davomida olib borildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2-guruhda klinik yaxshilanish 1-guruhga nisbatan tezroq va barqarorroq kuzatildi. Tizimli terapiya olgan bemorlarning 87 foizida 4 hafta ichida og`riq va yallig‘lanish belgilarining sezilarli kamayishi qayd etildi. 1-guruhda esa bu ko‘rsatkich 50 foizni tashkil etdi.

Qaloqlanish darajasi tizimli davolash fonida o‘rtacha 2 baravar tez kamaydi. Shuningdek, qaytalanish holatlari 1-guruhda 3 oy davomida 50 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2-guruhda bu ko‘rsatkich 15 foizdan oshmadi.

Muolaja davomida ayrim bemorlarda yengil dispeptik belgilar kuzatildi, biroq jiddiy nojo‘ya ta’sirlar aniqlanmadi. Kompleks yondashuv organizmning umumiy holatini yaxshilashga, immun javobni me’yorlashtirishga hamda terining regeneratsiya jarayonlarini tezlashtirishga yordam berdi.

Kasallikning surunkali kechishini hisobga olgan holda, bemorlarga individual yondashuv, ratsional ovqatlanish, stressni kamaytirish hamda terini to‘g‘ri parvarish qilish bo‘yicha tavsiyalar berish muhim ahamiyatga ega. Tizimli muolaja seboreyali po‘rsildoqni nazorat qilishda samarali va istiqbolli usul hisoblanadi.